

# Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi

## 2018 - YIL QURILISH PUDRAT ISHLARI YANVAR-NOYABR OYLARIDA

Joriy yilning yanvar – noyabr oyida viloyat bo'yicha 3 023,4 mlrd. so'mlik qurilish pudrat ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,0 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 506,4 mlrd.so'mni yoki jami qurilish ishlari xajmining 16,7 % foizni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 91,6 % ni tashkil qildi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari xajmining 50,1 %i yoki 1 513,4 mlrd. so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,6 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 33,2 % ni yoki 1003,6 mlrd.so'm to'g'ri keldi, hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 94,1 % ni tashkil etdi. Ko'pgina tumanlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmining o'sishi kuzatildi. Shu jumladan, Chiroqchi tumanida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 207,3 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 101,8 foizni, Shahrizabz shahrida – 103,2 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 101,6 foizni, G'uzor tumanida -150,4 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 101,5 foizni, mos ravishda, Qamashi tumanida – 65,4 mlrd.so'mni yoki 101,3 foizni tashkil etdi.


### **Raqamlar:**

**Qurilish-montaj ishlari hajmi – 3 023,4 mlrd.so'm**

**Yirik qurilish-pudrat tashkilotlari ulushi – 16,7 %**

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi – 50,1 %**

**Qurilishda norasmiy sektorning ulushi – 33,2 %**



Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 506,4 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 16,7 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 91,6 %ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 50,1 %i yoki 1 513,4 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,6 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 33,2 % yoki 1003,6 mlrd.so'm to'g'ri keldi, hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 94,1 %ni tashkil etdi

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha

	JAMI (mlrd.so'm)	Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha			Jami qurilish xajmidan
		Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari	Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnikaviy qayta qurollantirish
<b>Viloyat bo'yicha jami:</b>	<b>3023,4</b>	2407,0	213,6	402,8	2206,8
<b>Nodavlat :</b>	<b>2875,6</b>	2336,2	166,3	373,1	2098,1
<b>Davlat:</b>	<b>147,8</b>	70,8	47,3	29,7	108,7


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 79,6 %ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi jami qurilish pudrat ishlari hajmida 7,1 %ni, hamda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda 13,3 %ni tashkil qildi. Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 4,6 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,2 % punktga kamaydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 57,0 % (7,2 % punktga ko'payish) va norasmiy sektorning ulushi 41,7 % ni (5,5 % punktga kamayish) tashkil etdi. Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 52,4 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 13,5 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 47,6 % (13,5 % punktga ko'payish) tashkil etdi. Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,9 % punktga ko'paydi va 70,6 %ni tashkil etdi. Qolgan 29,4 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalarhissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,9 % punktga kamaydi.

<b>2017 y</b> <b>Viloyat bo'yicha jami:</b> <b>2 493,3 mlrd so'm</b>	<b>2018 y</b> <b>Viloyat bo'yicha jami:</b> <b>3 023,4 mlrd so'm</b>
<b>Davlat</b> <b>122,1 mlrd so'm</b>	<b>Davlat</b> <b>147,8 mlrd so'm</b>
<b>Nodavlat</b> <b>2371,2 mlrd so'm</b>	<b>Nodavlat</b> <b>2 875,6 mlrd so'm</b>

## Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati

2018 yil yanvar-noyabr uchun



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o'sish surati Chiroqchi tumanida kuzatildi. Ushbu hududda "Qarshi conch sement" MCHJ tomonidan sement ishlab chiqaruvchi zavod qurilish ishlari olib borilmoqda, shu tufayli ushbu hududda o'sish suratining 101,8 % bo'lishini ta'minladi.

Qarshi shahridagi yuqori o'sish surati, yani 102,5 %ni tashkil qilib, Qarshi

shahrida “Vatanparvarlar bog’i” hamda “Sulton tex” ip yigiruv fabrikasi qurildi.

Mirishkor tumanidagi yuqori o`shish surati asosan norasmiy sektor tomonidan qurilish ishlarining jadal bajarilganligi bilan bog`liq.

**Hududlar kesimida qurilish ishlari  
quyidagicha ifodalanadi**

	<i>Jami</i>		<i>shu jumladan:</i>	
			<i>Hududiy qurilish pudrat tashkilotlari</i>	
	<i>mlrd. so`m</i>	<i>o`shish sur`ati, foizda</i>	<i>mlrd. so`m</i>	<i>o`shish sur`ati, foizda</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3023,4</b>	<b>100,0</b>	<b>411,9</b>	<b>85,1</b>
tumanlar:				
G'uzor t	150,4	101,5	-	-
Dehqonobod t	97,6	98,6	-	-
Qamashi t	65,4	101,3	-	-
Qarshi t	270,1	99,0	4,0	100
Koson t	381,6	100,5	208,7	96,1
Kitob t	229,6	100,1	-	-
Mirishkor t	94,8	101,8	-	-
Muborak t	163,6	99,8	25,7	38,7
Nishon t	78,3	98,2	7,4	125,0
Kasbi t	122,1	97,3	3,8	2,0 m
Chiroqchi t	207,3	101,8	-	-
Shahrisabz t	150,1	97,8	-	-
Yakkabog' t	156,7	98,6	6,4	2,4 m
Qarshi sh	752,6	102,5	121,4	89,0
Shahrisabz sh	103,2	101,6	34,5	64,6

Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining hudular bo'yicha

tarkibida Koson tumanii yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlarining 40,3 %i yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan, Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Kasbi tumanida kuzatildi 0,5 %. Bu hududdagi qurilish ishlarining asosiy qismi norasmiy sektor hissasi to'g'ri keladi – hududdagi jami qurilish ishlarining 65,3 %i.

## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 2875,6 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 95,1 foizini tashkil qildi. Shu jumladan mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 147,8 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 4,9 foizini tashkil qildi.

### Mulkchilik shakllari (foizda)

